

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISH.

*Dadabayeva Hayotxon*

*O'zbekiston Davlat Juhon Tillari Universiteti*

*4-bosqich talabasi*

*E-mail: [dadabayevahayotxon@gmail.com](mailto:dadabayevahayotxon@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lismashg'ulotlarning ta'lim sifatini oshirish usullari tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yin va interfaol usullardan foydalanish, shuningdek, xalqaro pedagogic yondashuvlar, jumladan, Montessori va Reggio Emilia metodlari orqali ta'lismamaradorligi qanday oshirilishi yoritiladi. Ta'lim mazmunini boyitish va muntazam baholash jarayinlarini ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lismashg'ulot sifati, zamonaviy usullar, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, AKT, o'quv dasturi, ta'lismamaradorligi.

**Abstract:** This article analyzes the methods of improving lesson quality in preschool institutions. It discusses the use of information and communication technologies, game-based and interactive methods, and international pedagogical approaches, including Montessori and Reggio Emilia methods, to enhance educational effectiveness. The enrichment of educational content and the importance of continuous assessment are also considered.

**Key words:** Preschool education, lesson quality, modern methods, interactive methods, game-based learning, ICT, curriculum, educational effectiveness.

**Аннотация:** В данной статье анализируются методы повышения качества занятий в дошкольных образовательных учреждениях. Рассматривается использование информационно-коммуникационных технологий, игровых и интерактивных методов, а также международных педагогических подходов, таких как методики Монтессори и Реджо Эмилия, для повышения эффективности обучения. Также обсуждаются вопросы обогащения содержания образования регулярной оценки.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, качество занятий, современные методы, интерактивные методы, игровые технологии, ИКТ, учебная программа, эффективность образования.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lismbolalarning intellectual, ijtimoiy, psixologik va hissiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu davrdagi ta'limganing sifatli bo'lishi bolalarning kelajakdagi o'quv jarayonlariga tayyorligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, yangi texnologiyalar va innovatsion usullar ta'lismifatini

oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta'lim mazmunining individual ehtiyojlarga moslashvi ham muhim kasb etadi.

### **Asosiy qism:**

1. **Ta'lim sifatini oshirish zarurati.** Maktabgacha Ta'lim jarayonining sifatini oshirishning muhim jihatni-bolalarning bu davrdagi rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishdir. Bu davrda bolaning diqqat-e'tibori, qobiliyati va qiziqishi tez rivojlanadi, shuning uchun, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish muhimdir. Ta'lim sifatini oshirish quyidagi jihatlar orqali amalga oshiriladi:
  - **Shaxsi yondashuv:** Har bir bola individualdir, shuning uchun pedagoglar bolalarning individual qobiliyatlarini, qiziqishlari va rivojlanish darajalarini hisobga olishlari kerak. Shaxsiy yondashuv orqali bolalarga ularning ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim berish mumkin.
  - **Ijodiy muhit yaratish:** Mashg'ulotlar ijodiy jarayonlarga mos bo'lishi kerark. Bolalarning ijodkorligi va tasavvur kuchini rivojlantirish uchun ochiq savollar, ijodiy vazifalar va mustaqil tadqiqot faoliyatlariga imkoniyat yaratish lozim.
2. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va usullar.** Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli muhim o'rinni tutadi. Bugungi kunda quyidagi texnologiyalar keng qo'llaniladi:
  - **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT):** AKT bolalarning bilim olish jarayonini interaktiv va ko'rgazmali qiladi. Masalan, raqamli darslar, interaktiv videolar va ta'lim dasturlari yordamida bolalar o'z qiziqishlariga mos materiallarni o'rganishadi. AKT orqali masofaviy ta'lim va onlayn resurslardan foydalanish imkoniyati ham yaratiladi.
  - **Robototexnika va kodlash:** Bugungi kunda STEAM va STEAM fanlariga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Maktabgacha ta'limda oddiy robototexnika va kodlash dasturlari bolalarning ilmiy bilimlarini va texnologiyaga qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi.
  - **O'yin texnologiyalari:** O'yinlar bolalarning rivojlanishining tabiiy shakli hisoblanadi. O'yin texnologiyalari orqali bolalar jamoaviy ishlash, muloqot qilish va ijtimoiy qoidalarga rioya qilishni o'rganishadi. O'yin elementlari bilan boyitilgan mashg'ulotlar bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi.
3. **Xalqaro yondashuvlar va ilg'or tajribalar:** Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limning sifati ko'p jihatdan pedagogik yondashuvlarga bog'liq. Quyida xalqaro miqyosda keng qo'llanilayotgan ba'zi pedagogik modellar:
  - **Montessori usuli:** Bu metodikaning maqsadi bolalarning tabiiy qiziqishini rivojlantirish, ularga mustaqil o'rganish imkoniyatini berishdir. Montessori maktablarida mashg'ulotlar orqali bolalar o'z bilimlarini tajriba orqali o'rganadilar va rivojlantiradilar. Bu yondashuv bolalarda mas'uliyatlilik va mustaqillikni rivojlantiradi.

- **Reggio Emilia yondashuvi:** Italiyada rivojlangan bu yondashuv bolalarni ijodkorlik va o'z bilimlarini yaratishga qaratilgan. Reggio Emilia maktablarida bolalarning ihmadiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratiladi, ularning har bir faoliyati ijodiy jarayon sifatida ko'rildi.
- 4. **Mashg'ulotlar mazmunini boyitish:** Ta'lim sifatini oshirish uchun mashg'ulotlar mazmunini muntazam ravishda yangilab boorish va ularni bolalarning ehtiyojlariga moslashtirish kerak. Quyidagi usullar ta'lim mazmunini boyitishga yordam beradi:
  - **O'quv dasturlarini differentialsallashtirish:** har bir bolaning qobiliyatini hisobga olgan holda individual o'quv rejalarini ishlab chiqish muhimdir. Bu bolaning ta'limga bo'lgan qiziqishini orttirish bilan birga, uning rivojlanish darajasiga mos bilimlar berishga imkon beradi.
  - **Ijtimoiy-madaniy konteksti hisobga olish:** O'quv dasturlarini yaratishda bolalarning ijtimoiy-madaniy konteksti ham hisobga olinishi kerak. Bu usul bolalarning o'z madaniy muhitiga mos ravishda ta'lim olishiga yordam beradi.
- 5. **Ta'lim sifatini baholash usullari.** Mashg'ulotlarning ta'lim sifatini oshirish uchun doimiy monitoring va baholash tizimini joriy qilish kerak. Bu jarayon o'quvchilarning bilim darjasini, rivojlanishi va qobiliyatlarini kuzatib borishga imkon beradi. Zamonaviy baholash usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - **Portfoliolar:** Har bir bolaning rivojlanishini kuzatib boorish uchun portfoliolar samarali vosita hisoblanadi. Bola tomonidan yaratilgan ishlar, rasmlar va boshqa ijodiy faoliyat natijalari portfolioga kiritiladi.
  - **Kuzatuvlar:** Bolalarning o'quv jarayonida qanday qatnashayotgani, ularning qobiliyatlarini va qiziqishlarini kuzatish orqali pedagoglar ta'lim jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

**Xulosa.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarning ta'lim sifatini oshirish zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shaxsiy yondashuvlar va xalqaro tajribalarga asoslangan ta'lim usullari orqali amalga oshirilishi mumkin. O'quv dasturlarining boyitilishi va bolalarning individual qobiliyatlariga mos ta'lim berilishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, muntazam monitoring va baholash jarayonlari pedagoglarga o'quv jarayonining holatini tahlil qilish va zarur o'zgartirishlar kiritishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya.
2. Usmonov M. Interaktiv electron o'quv kurslar-o'qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida // "Xalq ta'limi" jurnali, 2013, 5-soni.

3. R. Ishmuhammedov, M. Yo'ldoshev. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar ("Ta'lim tizimi hodimlari metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma")-T: 2013.
4. Begimqulov U. SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnolgiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: "Fan" 2007. Taylaqov N. I. "Elektron darslik yaratishda qo'yiladigan talablar". // "Xalq ta'limi Jurnali, 2005.